

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA SAVOD O‘RGATISH DAVRINING MUHIM AHAMIYATLARI

MADINA XURRAMOVA ABDUNAZAR QIZI

Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

SHABBAZOVA D.R.

Ilmiy rahbar: p.f.f.d (PhD). TerDU

Annotatsiya: Hozirgi davrda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga savod o‘rgatishning o‘ziga yarasha qiyinchiliklari mavjud. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish davrida vujudga keladigan qiyinchiliklar yaratish, savod o‘rgatishning asosiy maqsad va vazifalari xususida so‘z yuritiladi. Savod o‘rgatishning birinchi kunlaridanoq o‘qish ongli bo‘lishi, bolalarni ongli o‘qishga o‘rgatish juda muhimligi haqida bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: ona tili, savod o‘rgatishning tayyorgarlik davri, savod, savodxonlik, o‘qish, muallim, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

KIRISH: Ma'lumki, savod o‘rgatish jarayonidagi o‘qish darslarining asosiy vazifasi o‘quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ulairning to‘g‘ri talaffuzini o‘rgatish orqali bolalarda to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o‘quvchilar lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, bilimini boyitish, tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o‘stirishda ham bu davr mas’uliyatliligi bilan alohida o‘rin tutadi. Tayyorgarlik davri o‘qishga o‘rgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda o‘zgalar nutqini eshitish, diqqatni to‘plash, til birliklarini (tovush, bo‘g‘in, so‘z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllantiriladi. Bular o‘quvchilarning o‘qishni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi. O‘qishga o‘rgatish uchun, avvalo, o‘quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo‘g‘indan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLIGIYA

Harf bilan tanishtirish bir necha xil yo‘nalishda amalga oshirilishi mumkin:

1. Mazmunli rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bog‘lanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap, so‘ng kerakli so‘z ajratib olinadi, so‘ngra so‘z ustida yuqoridaagi kabi tahlil ishlari uyuştiliriladi.

2. So‘z asos qilinib, analitik mashqlar yordamida o‘rganiladigan tovush ajratib olinadi. Masalan: oy. O‘qituvchi oy rasmini ko‘rsatadi, o‘quvchilar uning nomini - so‘zni aytadi. O‘qituvchi o tovushini cho‘zib (o-o-o-y) aytadi va qaysi tovushni cho‘zib aytayotganini o‘quvchilardan so‘raydi. O‘quvchilar o tovushini aytgach, uning xususiyatlari haqida savol-javob o‘tkaziladi. O tovushli so‘zlar o‘ylab toptiriladi. Shundan so‘ng o harfi kesma harfdan yoki rasmi alifbodan ko‘rsatiladi. Bunda o harfini shaklini esda olib qolishlariga alohida e’tibor qaratiladi.

3. O‘rganilgan harflar ichiga bugun o‘rganiladigan harf aralashtirib qo‘yiladi, bolalar uning ichidan notanish harfni ajratadilar, so‘ng o‘qituvchi bu harf ifodalaydigan tovushni aytadi. O‘quvchilar tovushning xususiyatlarini aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan, rasmi alifbodan ko‘rsatadilar. Shu tariqa tovush-harf bilan tanishtirilgach, o‘qishga o‘rgatish ustida ishlanadi. O‘qishga o‘rgatishda bo‘g‘in asos qilib olinadi. Buning uchun o‘qituvchida bo‘g‘in jadvali bo‘lishi lozim. Bo‘g‘in jadvali asosida o‘qish namunasi ko‘rsatiladi, ya‘ni harflab emas, ichida, birinchi harfni ko‘z bilan ko‘rib, uning nomini dilda saqlab, ikkinchi harfni ko‘rish va ikkalasini bog‘lab, unlini mo‘ljallab ulab aytish tushuntiriladi. Bo‘g‘in o‘qish o‘qituvchining namunasi asosida doimiy ravishda har bir darsda izchil olib boriladi. Bunda quyidagi kabi chizmalardan foydalanish mumkin: Bunda "Alifbe" sahifalaridagi so‘zlarni oldin bo‘g‘inga bo‘lish, so‘ng o‘qishni mashq qilish yaxshi samara beradi. O‘qituvchining namunali o‘qishidan so‘ng birgalikda ovoz chiqarib o‘qish, yakka-yakka o‘qish, shivirlab o‘qishdan foydalaniladi. Ayniqsa, sekin o‘qiydigan o‘quvchilar bo‘lgan sinflarda xor bilan o‘qitish o‘qishni tezlashtirishga yordam beradi. Sinf o‘quvchilarining o‘qish ko‘nikm alaridan kelib chiqib, matndagi so‘zlarni xattaxtada bo‘g‘inlarga bo‘lib yozish, o‘rganilgan harflarni hisobga olgan holda qo‘srimcha so‘z birikmalarini, gaplar tuzib yozish va o‘qitish usulidan ham foydalaniladi. Ma'lumki, "Alifbe" sahifalarida bo‘g‘in tuzilishi murakkablashib boradi. Shuning uchun o‘qituvchi har bir bo‘g‘in tuzilishining murakkabligiga qarab ish usullarini belgilab olishi zarur. Masalan, uch tovushdan tuzilgan, to‘rt tovushdan tuzilgan bo‘g‘inlarni o‘qishga o‘rgatish ham o‘ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda o-lov, Mart-non tipidagi bo‘g‘inlarda o-lo:v, Ma:n-no:n tarzidagi qo‘srimcha chiziqdandan, bodring, do‘.tf tipidagi bo‘g‘inlarda bo:d-ri:ng, to‘:r:t tarzidagi qo‘srimcha chiziqlardan foydalaniladi. So‘zlarni o‘qishga o‘rgatishda bo‘lib o‘qitishdan tashqari jadvallar ham yaxshi samara beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekistonning milliy mustaqillikka erishishi vahozirgi kunda ma’naviy o‘zgarishlar jamiyatimiz ijtimoiy hayotida tub burilishlarni boshlab berdi va ular o‘zbek xalqining bundan keyingi taqdirini belgilab berishda muhim rol o‘ynaydi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab barkamol avlod tarbiyasiga alohida etibor berib kelinmoqda. Mamlakatimizda ta’lim sohasini islohqilishga yo‘naltirilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim siyosatining muhim maqsadlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Bolani mакtabda muvaffaqiyatli ta’lim olishga tayyorlash uchun unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish zarur. Bola nutqining rivoji ko‘p jihatdan uning ruhiyatiga, sog‘lom, tetik o‘sishiga. Ahloqiy sifatlariga o‘quv dasturini o‘zlattirishda me’yorli bajarilishini ta’minlashshiga, qo‘llanmalarning monandligiga bog‘likdir. Bu masalalar maktabgacha ta’limda o‘z echimi ifodasini topishi va o‘z ona tilida ravon gapira oladigan qilib tarbiyalashga qaratilishi zarur. Bolalarning aqliy jarayonini rivojlantirish uchun ularning nutqini o‘stirish zarur: Bola har bir so‘z manosini tushuna olishi uni o‘z nutqida erkin ifodalashga muvofiq bo‘lishi kerak. Tushunchalar tizimiga moslashgan bola o‘z fikrini jamlab gapirishga va ifodalab berishga o‘rganadi. Og‘zaki nutqini o‘stirish bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda asosan, bolalarning og‘zaki nutqini o‘stirishga, nutqni grammatik tomondan to‘g‘ri shakllantirishga: nutqning morfologik va sintaksis tomonlarini shakllantirishni davom ettirish: sodda va qo‘shma gaplar tuzish, bunda barcha so‘z turkumlaridan foydalanishga o‘rgatish, bolalarni gapirganda sonni otga, sifatni otga, sifatni fe’lga to‘g‘ri ishlatish malakalarini takomillashtirish, tovush va so‘zlarini to‘g‘ri talaffuz etishga, ravon gapirishga, mustaqil hikoya qilishga e’tibor beriladi. Og‘zaki nutqini o‘stirishda mustaqil hikoya qilishga o‘rgatish katta o‘rin egallaydi: bolalalarni o‘z hayotlarida uchragan voqealar, suratlarga qarab, tarbiyachining taklif qilgan mavzusi asosida hikoyalari tuzishga o‘rgatiladi. Tayyorlov guruh bolalarining hikoyalari mazmunan bog‘langan, ma’lum izchillikda, grammatik tomondan to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi kerak. Bunda o‘quvchilarni sam olishini tshkil etish ham muhim hisoblanadi. Ularning ta’limda zo‘riqishini, darslardan bezishini va hali mакtab ta’limiga psixologik-pedagogik hamda jismoniy to‘liq tayyor emasligini unutmagan

holda boshlang‘ich sinflarni savodga o‘rgatish darslarida o‘quvchilarni dam olish daqiqalarini tashkil etish tadqiqotimizning dolzarbligini ko‘rsatib beradi. Shuningdek, Prezidentimizning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarinisafarbar etamiz” mazmundagi fikrlaridan yoshlarga oid davlat siyosatining naqadar ustuvor ekanligini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bumosalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.” degan fikrlari tadqiqot ishimizning dolzarbligini o‘zida ifodalaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak boshlang‘ich sif o‘quvchilarida savod o‘rgatish davrining muhim ahamiyatlaridan biri bu o‘quvchilarga harflarni tanitish, o‘qishni va yozishni o‘rgatish usullari albatta ularning savodini yanada yaxshilashga, oshirishga yordam beradi deb o‘ylayman. Bugungi kunda texnika rivojlanib borayotgan bir davrda zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish har bir soha egasining kundalik vazifasiga aylanib bormoqda. Faqat buning bir nechta talablariga to‘g‘ri yondashilishiga e’tibor qaratish lozim. Foydalanadigan material mazmuni bola yoshiga mos bo‘lishi, bolaning intellektual imkoniyatlarini ochish uchun xizmat qillishi lozim. Shundagina o‘quvchilarning multimediya vositalari, slaydlari va smart lavhalaridan foydalanishlari foydali va samarali bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boshlang‘ich maktab darsliklarini yaratish mezonlari / Tuzuvchilar: Q. Abdullayeva, M. Ochilov, K. Nazarov, S. Fuzailov, N. Bikboyeva. -T.: 1994.
2. J. G‘. Yo‘ldoshev, S. A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. - T.: „O‘qituvchi”, 2004.
3. Y. Abdullayev. Eski maktabda xat-savod o‘rgatish. - T.: „O‘qituvchi”, 1960.
4. K. Qosimova. Boshlang‘ich sinflarda imlosi qiyin so‘zlarnio‘rgatish. - T.: 1964.
5. K. Qosimova, S. Fuzailov, A. N e’matova. Ona tili (2-sinf uchun darslik). - T.: Cho‘lpon, 2005.
6. K. Qosimova, A. N e’matova. 2-sinfda ona tili darslari. - T.: Cho‘lpon, 2004